

## BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASIDAN SOLIQ TIZIMIDA FOYDALANISH

Sabirova Dildor Arifovna

Xalqaro Nordik universiteti

d.sobirova@nordicuniversity.org

### ANNOTATSIYA

Maqolada soliq tizimida blokcheyn texnologiyasini qo`llash jahon tajribasi o`rganib chiqilgan. Soliq tizimida blokcheyn texnologiyasini joriy etish afzalliklari tahlil qilingan. O`zbekiston soliq tizimida blokcheyn texnologiyalarini joriy etish mexanizmlari bo`yicha takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Soliq tizimi, blokcheyn, tranzaktsiya, aqli shartnoma, qo‘shilgan qiymat solig‘i.

### KIRISH

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi inson faoliyatining turli sohalarida keng joriy etilmoqda. Masalan, blokcheyn texnologiyasi soliq tizimini yanada takomillashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Blokcheyn texnologiyasi - bu P2P tarmog‘iga ulangan kompyuterlarda takrorlanadigan ma’lumotlarning registri hisoblanadi. Tarmoq ichida jo‘natuvchi va qabul qiluvchi ma’lumotlarini xavfsiz aniqlash uchun kriptografiya usuli ishlataladi. Bir xil maqomdagagi tarmoq tuguni ma’lumotlarning bir qismini registrga qo’shishni xohlaganda, tizimning boshqa ishtirokchilar ma’lumotni tasdiqlashlari kerak, bu esa o‘z navbatida blokga qo’shiladi.




Har bir blokda oldingi blokning o‘ziga xos heshi (raqamli barmoq izi kabi ishlaydi) mavjud va ularni bir-biriga bog‘lab, blok zanjiri hosil qiladi. Ushbu texnologiya tomonlarga ma’lumot almashish va bir-birlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tranzaktsiyalarini xavfsiz tarzda amalga oshirishga imkon berish orqali markazlashtirish zarurligini yo‘q qiladi.

Blokcheyn yordamida raqamli muhitni yaratish orqali sotilgan tovarlar va xizmatlar bilan bog‘liq barcha harakatlar aks ettiriladi, uning tarkibini o‘zgartirish imkoniyatisiz barcha ma’lumotlarni bitta zanjirga bog‘lash mumkin bo‘ladi. Ma’lumotlarni shakllantirishning bunday strategiyasi soliqlarning to‘langanligini ancha muvaffaqiyatli tekshirishga, firibgarlikning turli sxemalarini aniqlashga imkon beradi.

Bundan tashqari blokcheyn bugungi kunda axborotni qayta ishlashda surf qilinadigan vaqt miqdorini talab qilmaydi. Bunday vaqt xarajati o‘n barobar qisqaradi. Smart shartnomalar esa ichki qo‘lda bajariladigan jarayonlarni o‘rnini bosadi.

Soliq tizimiga kiritilgan blokcheyn avtomatik ravishda soliq deklaratsiyalarini ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan vaqtini qisqartiradi, tizimni shaffof qiladi, firmalar ichida soliq operatsiyalarini optimallashtiradi va hukumatlarga soliq tushumlarining doimiy ravishda oqimini imkon qadar eng past foizli foiz bilan ta’minlaydi.

### Blokcheyn qanday ishlaydi?

Tranzaktsiya blokcheyn -tarmoqqa kelib tushadi.		Foydalanuvchilar doimiy ravishda tranzaktsiyalarni blokcheyn -tarmog`iga jo`natishadi.
Barcha tarmoqdagi tugunlar tranzaksiya to‘g‘risida xabar oladi.		Operatsiyalar tarmoq tugunlari tomonidan qabul qilinadi va ularning haqiqiyligi tekshiriladi.
Yangi ma’lumotlar bloki yaratiladi va blokcheyn bo‘ylab tarqatiladi (ma’lumotlar bloklari zanjiri bo‘ylab).		Shundan so‘ng bitta tarmoq tuguni tranzaktsiyalarni yangi blokga guruhlaydi.
Blokcheyn yangilanadi va tranzaksiya tugaydi.		Tarmoq tuguni blocklar zanjiriga yangi blok qo‘sadi va tranzasiya tasdiqlanadi.

Shaffoflik va operatsiyalarini real vaqtida tasdiqlash imkoniyati savdo operatsiyalariga soliq solishni avtomatlashtirishga va soddalashtirishga, xususan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va boshqa soliqlarini hisoblashda yordam beradi. Bu esa soliq hisobotlarini tayyorlash xarajatlarining pasayishini anglatadi.

Blokcheyn real vaqt rejimida tarmoq ichidagi operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga kirishni ta’minalash orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash bilan kurashda qo‘srimcha vosita bo‘lishi mumkin va shu bilan birga u yashirin iqtisodiyotni legallashtirishda yordam beradi.

Bugungi kunda aksariyat yirik kompaniyalar tobora ko‘proq onlayn platformalarga o‘tmoqdalar. O‘z navbatida kichik biznes tobora takomillashib, jahon bozorlariga chiqmoqda. Ushbu tendensiyalar o‘zlarining milliy vakolatlari doirasida milliy darajada ishlaydigan va ko‘pincha virtual bozorlarda kam tajribaga ega bo‘lgan davlat organlari uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Transmilliy kompaniyalarning nafaqat mutlaq, balki nisbiy soliq majburiyatlarini ham baholash tobora qiyinlashmoqda.

Asosiy muammolar xalqaro xarakterga ega bo‘lganligi sababli ularni va shu jumladan rivojlanayotgan davlatlarni, faqat xalqaro hamkorlik doirasida hamda umumiyyat texnik platformada ko‘rib chiqish mumkin.

Shunisi e’tiborliki, blokcheyn yordamida yaratilgan taqsimlangan registrlar tomonlarning cheklangan guruhlari uchun “xususiy” ham bo‘lishi mumkin, shu sababli ular uchun shaffof bo‘lgan ma’lumotlar boshqalar uchun sir bo‘lib qoladi.

Blokcheyn texnologiyasi buxgalteriya yozuvlariga ehtiyojni yo‘q qiladi. Masalan, ish haqi yoki QQSda ishlatiladigan blok zanjiri soliqlarni yig‘adigan vositachiga (soliq inspektoriga ehtiyojni yo‘qotadi, shuningdek, aqli shartnomalar yordamida soliqlarni avtomatik ravishda to‘lashga imkon beradi. Ushbu shartnomalar raqamlı yoki blokcheyn shartnomalariga taalluqlidir.

Aqli shartnomaning asosiy maqsadi vositachiga bo‘lgan ehtiyojni olib tashlash va anonim tomonlarga Internet orqali biznes yuritishga ruxsat berishdir.

Italiya, Estoniya, Braziliya, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlyandiya kabi mamlakatlarda ish haqi bo‘yicha soliqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosan raqamlashtirilgan. Biroq, ushbu tizimlarning sezilarli kamchiliklari bor: ko‘plab davlat idoralari o‘zlarining registrlari mayjud bo‘lib, ular aslida boshqa idoralar tomonidan saqlanadigan ma’lumotlarni takrorlaydi.

Blokcheyn joriy etilishi bilan ish beruvchilar vositachilik vazifasini o'tamaydilar va soliqlarni, ijtimoiy to'lovlarni va boshqalarni to'g'ri hisoblash uchun javobgar bo'lishlari shart emas. Aqli shartnomalar tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan ish haqidan daromad solig'ini hisoblash jarayonini to'liq avtomatlashtiradi:

1. Ish beruvchi yalpi ish haqini tizimga kiritadi;
2. Blokcheyn doirasida (faqat soliq idoralari, banklar va boshqa zaruriy shaxslar tomonidan cheklangan), soliq ma'lumotlari aqli kontrakt texnologiyasi yordamida tekshiriladi, soliq va ijtimoiy ta'minotning to'g'ri miqdori hisoblab chiqiladi; g'
3. Sof ish haqi avtomatik ravishda xodimning hisob raqamiga va hisoblangan soliq avtomatik ravishda davlat hisob raqamiga o'tkaziladi.

Natijada, ish haqini to'lash jarayoni tezroq va arzonroq bo'lib, naqd pul oqimi samaraliroq bo'ladi.

QQS bo'yicha eng ilg'or yechimlar Braziliyada qo'llaniladi, bu yerda elektron hisobfakturalar soliq organlari tomonidan real vaqtida qabul qilinadi. Ayrim Yevropa mamlakatlarida ham ushbu tizimni qo'llash jarayoni boshlandi. Hozirgi holatida, ham milliy, ham xalqaro miqyosda QQSn hisoblash tizimi muammolar bilan to'la. QQS miqdorini to'g'ri hisoblash va soliq organlariga taqdim etish ko'p jihatdan korxonalarining o'ziga bog'liqdir. Shu bilan birga, bu jarayon, ayniqsa, kichik biznes uchun qiyinchilik tug`diradi.

Soliq tizimiga, jumladan, QQS ma'murchiliga blokcheyn texnologiyasini joriy etish quyidagi afzalliklarga ega,

- QQS mexanizmining bexato ishslashini ta'minlash. "Aqli shartnoma"larga (smart contract) asoslangan bitimlar shaffof bo'lib, QQS tizimida firibgarlik va xatoliklar xavfini kamaytiradi,

- Soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish. QQS manfiy tafovuti summalarini qaytarish jarayonini maksimal darajada soddalashtirish, soliq organlari yukini kamaytirish, vaqt va hisob-kitob sarfini tejash imkonini beradi,

- Eng kichik soliq operatsiyalarini ham kuzatib borish (tovarning ishlab chiqaruvchidan to iste'molchiga yetib borguncha bo'lgan bosqichlarida QQS monitoringi),

- Real vaqt rejimida hech qanday o'zgartirishlarsiz yozuvlarni saqlash.

Blokcheyn texnologiyasini AQSh soliq tizimiga joriy etish 2017 yilning birinchi choragida Vashingtonda bo'lib o'tgan "DC Blokcheyn Summit" da muhokama qilindi va blokcheyn texnologiyasini joriy etish hayotiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Shenchjen shahrining Milliy soliqqa tortish byurosi (Xitoy) Tencent IT-kompaniyasi bilan birgalikda «Intelligent Tax» loyihasini ishlab chiqdi.

Blokcheyn hisobvaraq-fakturalar va kvitansiyalar kabi hujjatlarni kuzatishda, qalbaki pullarning oldini olishda foydalaniladi. Shenchjen shahrida soliq to'lashdan bo'yin tovplashning eng ommalashgan shakli bu tovar va xizmatlarni sotish uchun ishlatiladigan "fapiaos" kvitansiyasi. Tencent "har bir fapiaosni tekshiriladigan, ishonchli va kuzatiladigan qilishiga va butun fapiaos aylanish jarayonini boshqarish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanishga" umid qilmoqda.

Estoniya davlati esa bugungi kunda turli xizmatlar va ma'lumotlar bazalarini birlashtirgan markazlashmagan ochiq tizimni yaratdi. Ushbu tuzilma tufayli unga yangi xizmatlar va dasturlarning integratsiyasi nihoyatda sodda bo'lib qoldi va ularni blokcheynga o'tkazish davlatning markazlashgan ishiga qaraganda arzonroq narxlarda amalga oshiriladi.

Blokcheyn texnologiyasidan nafaqat taraqqiy etgan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham ko'plab sohalarda (iqtisodiyot, moliya, davlat kadastri va kartografiya, pul o'tkazmalari, sog'liqni saqlash va h.k.) foydalanish imkoniyatlari o'rganilmoqda.

Bugungi kunga kelib, davlat organlari va korxonalar o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyati va soliq nazorati usullarining nomukammalligi, shuningdek mahalliy soliqlar va boshqa to'lovlarni undirish mexanizmlarining samarasizligi respublika soliq siyosatining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Respublika soliq tizimidagi bu holatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi 5468-sonli "O'zbekiston

Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida” gi Farmonida o‘z aksini topgan.

Biznes yuritish qulayligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytingi soliqqa tortishda ma’muriy muammolar mavjudligini ham ko‘rsatadi.

Jahon bankining Doing Business hisobotiga ko‘ra, soliqqa tortish qulayligi bo‘yicha O‘zbekiston 69-o‘rinni egallab turibdi. Ushbu hisobotda o‘rtा korxonalar ma’lum bir yilda to‘lashi kerak bo‘lgan soliqlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Bunda soliqlarni to‘lash bilan bog‘liq ma’muriy yuk hisobga olinadi (2.-jadval, 1-diagramma).1

Blokcheyn, real vaqtida tasdiqlangan ma’lumotlar to‘plamini yaratish orqali to‘plangan ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan ko‘plab jarayonlar uchun yangi poydevorga aylanishi mumkin. Mamlakatlar ushbu texnologik ishlanmalarga javoban fizik jihatdan saqlanadigan ba’zi kitoblarini tarqatilgan platformalarga elektron shaklda ko‘chirish orqali katta foyda ko‘rishi mumkin.

2.-jadval

### O‘zbekistonda soliqqa tortish (qiyosiy tahlil)

Doing Business 2020	Uzbekistan
---------------------	------------

#### Paying Taxes - Uzbekistan

Indicator	Uzbekistan	Europe & Central Asia	OECD high income	Best Regulatory Performance
Payments (number per year)	9	14.4	10.3	3 (2 Economies)
Time (hours per year)	181	213.1	158.8	49 (3 Economies)
Total tax and contribution rate (% of profit)	31.6	31.7	39.9	26.1 (33 Economies)
Postfiling index (0-100)	48.2	68.2	86.7	None in 2018/19

## XULOSA

Jahon amaliyoti ko‘rsatib turibdiki, blokcheyn tizimi yuqoridagi vazifalarini hal qilishga o‘z hissasini qo‘shadi, ammo uni soliq organlarida amalga oshirish davlat idoralari ma’lumotlar bazalarida ham, tarmoq tizimlarida ham tub o‘zgarishlarni talab qiladi. Blokcheynni amalga oshirish ko‘plab darajalarda axborot tizimlarini birlashtirishdan tashqari, huquqiy tizim, intellektual mulk to‘g‘risidagi qonunlarni o‘zgartirishni talab qiladi. Biroq, blokcheyn texnologiyasining davlat uchun, shu jumladan soliq siyosati uchun foydasi juda katta. Blokcheyn respublikaning kichik va yirik korxonalari uchun real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan soliq jarayonlarini amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. O‘zbekiston soliq tizimida blokcheyn texnologiyasini joriy etish natijasida, soliq mexanizmining qulayligi bo‘yicha dunyo reytingida yaxshi darjalarga erishishga umid qilish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshov, M., Saidova, M., Sabirova, D., Kutbitdinova, M., & Azizov, A. (2023). Effective use of block chain technology in business process (in case of Uzbekistan). In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 05069). EDP Sciences.
2. Isakovna, M. R. (2021). Monetary Policy Of Developing Countries In Inflationary Processes. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(7).
3. Tukhtabaev, J. S., Bondarskaya, O. V., Abdulxayeva, G. M., Sabirova, D. A., Mamarayimova, R. R., Ibroximova, Z. B. K., ... & Kurolboyev, D. D. U. L. (2022, December). Socio-economic necessity and prospects for the introduction of the digital economy. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 159-166).
4. Arifovna, S. D., & Maxmudovich, A. O. (2023). MOLIYA TIZIMIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (3), 161-169.
5. Arifovna, S. D. (2023). ELEKTRON HUKUMATNI JORIY ETISHNING JAHON TAJRIBASI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (4), 179-193.